




HAYVONAT OLAMI BILAN TANISHISH ORQALI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AXAMIYATI.

Zuparova Munira Xamidovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10640826>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-February 2024 yil
Ma'qullandi: 03- February 2024 yil
Nashr qilindi: 04- February 2024 yil

KEY WORDS

ijtimoiy samaradorlik, ta'limi standarti, uzluksiz ta'lim, intellektual bilim, shaxs tarbiyasi;

ABSTRACT

Mustaqillik yillarida Respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga qo'tarildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish mazkur ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli farmonida ko'rsatilganidek, maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'imi hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda - Konsepsiya) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son Qarorni ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Prezident qarori qabul qilindi.

Maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyalanuvchilarini yuksak ma'naviy madaniyat, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi siyosiy, iqtisodiy, fuqarolik va ma'naviy-madaniy sohalarda islohotlar jadallik bilan amalga oshiriladigan bugungi kunda ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, jahon ta'limi standartlari darajasida shaxsga ta'lim berish va ijtimoiy samaradorlikni oshirish davlat siyosatining ustuvor

yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish talabi ta'lim tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Yurtimizda "Sog'lom bola" yili deb e'lon qilingani hammaga ma'lum. Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Shu kunlarda hukumatimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturi ana shu ezgu maqsadga erishish yo'lida, jami davlat va nodavlat manbalarini hisobga olgan holda, mavjud barcha resurs va imkoniyatlarni safarbar etishni ko'zda tutadi.

Ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Shaxs tarbiyasi o'ziga xos murakkab jarayon. U amalga oshishi uchun bir nechta muhim omillarni talab qiladi. Tarbiya tizimiga to'g'ri va ijodiy yondashuv, tarbiyaning doimiyligi, tarbiya uchun jamiyat a'zolarining birdek mas'ulligi, tarbiyaning shaxsiy ibratga asoslanishi, oilaviy tarbiyaning ustuvorligi.

Bolalarni hayvonat olami bilan tanishtirish orqali axloqiy sifatlarini rivojlantirishning nazariy xususiyatlari

Axloq - odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi.

Axloq - kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlarini sifatida mavjud bo'lsa, odob - shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malasalari markaziy o'rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning «poydevori» deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor bilan qaraladi.

Muqaddas Qur'oni Karimda va payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomning hadislarida insoniy axloq-odobning barcha qirralari o'z ifodasini topgan.

Quyidagi hadislarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

«Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar», «Men barcha yaxshi axloqni takomillashtirish uchun yuborilganman», «Mo'min kishida quyidagi ikki xislat bo'lmasligi kerak: baxillik va axloqsizlik». Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti deb bilganlar. Albatta, "ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini boyitadigan eng muhim omildir"

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etgan yodgorliklar orasida Xorazm vohasi hududida yaratilgan bebaho ma'naviy obida «Avesto» kitobi alohida o'rin tutadi. Ana shunday o'lmas asori-atiqalar

bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi

«Avesto»ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ibrat

bo'ladigan axloqiy saboqlar borligini ko'rish mumkin. Ma'lumki har bir xalqning o'z afsonaviy qahramonlari, pahlavonlari bo'ladi. Shu ma'noda xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish «Alpomish» dostoni millatimizning

o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini saqlagan, el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik,

vafo va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarini o'z ifodasini topgan. Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi.

Pedagogika fani yosh avlodni axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta'limni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, Maktabgacha ta'lim davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichidir. Shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'limtarbiya ta'sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab axloqiy tarbiya berib borish muhimdir.

Dunyoda hayvonlarning ikki milliondan ortiq turi borligini hamma ham bilmasa kerak. Qizig 7 shundaki, ularni Yer kurrasining hamma joyida: yerda, tuproq qa'rida, dengiz, daryo, ko'llarda va hatto havoda uchratish mumkin. Hayvonlar tabiatda va inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. Insonningyashashi hamda hayot kechirishi uchun kerak bo'lgan ko'pchilik oziq-ovqat mahsulotlari va kiyimkechaklar, shuningdek, sanoat uchun zarur ayrim xomashyolar hayvonlardan olinadi. Bundan tashqari, Yer yuzida o'simliklarning ko'payishida, tarqalishida, tuproq tarkibining yaxshilanishi, unumdorligining ortishi, suvlarni tozalash kabi jarayonlarda hayvonlarning hissasi beqiyosdir. Shu sababli butun dunyoda hayvonlarni muhofaza qilishga, ularni asrash va ko'paytirishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Hayvonlarni muhofaza qilish uchun, avvalo, ularni parvarish qilishni bilish, nima bilan oziqlanishini o'tganish, xatti-harakatini kuzatish va ular haqida ko'plab kitoblar o'qish zarur. Biz ushbu kitobda hayvonot olamining ayrim turlari, ularning vakillari, yashash tarzi va o'ziga xos xususiyatlariga doir qiziqarli tajumotlarni berishga harakat qildik. O'yinchi, ushbu kitob tabiatdagi hayvonlarni o'rganishingizda doimiy hamrohingiz bo'lib qoladi

Bolalarga hayvonot olami haqidagi bilimlarni berish; hayvonlar, jonli tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish orqali ulardagi axloqiy sifatlarni tarbiyalash;

Hayvonot olami haqida tushuncha berish, ularni tasvirlash, hayvonot olamiga nisbatan ongli va axloqiy munosabatda bo'lishni tushuntirish.

Jamoaviy guruh shaklida o'tkaziladigan ushbu mashg'ulotda bayon qilish, suhbat, savol-javob, "Klaster" texnologiyasi usullaridan foydalaniladi. Tarqatma material, hayvonlarning surati aks ettirilgan rasmlar kartochkalar mashg'ulotni tashkil etishdagi asosiy vositalar hisoblanib, tarbiyachi har bir bolaning faol ishtirokini kuzatib boradi. Mashg'ulotga oid savollar bilan murojaat qilish usuli ham bolalarni faollikka undab, e'tiborini, diqqatini jamlashga xizmat qiladi. Mashg'ulot so'ngidagi rag'batlantirish esa bolalarni kelgusi

mashg'ulotlarga qiziqishini oshirishi tabiiy Yovvoyi hayvonlar, uy hayvonlari, qushlar, parrandalar.

Tarbiyachi: – Diqqat bilan rasmlarga qarab ularning turlari va farqlarini bilib olamiz. Ayting-chi, qaysi hayvonlar yovvoyi, yirtqich, qaysilari uy hayvonlari deb ataladi? Bularning qanday zararli va foydali tomonlari bor?

Tarbiyalanuvchilar ularning nomlari, o'ziga xos xususiyatlari hamda zararli tomonlarini bilganicha ayta boshlaydi.

Tarbiyachi turli hayvonlar rasmlarini ko'rsatib, bolalar bilan birgalikda ularni sinflarga ajratadi (klassifikatsiyalash); ya'ni uy hayvoni, yirtqich hayvonlar, parrandalar, qushlar rasmlarini ajratishadi.

III bosqich Ushbu bosqichda tarbiyachi bolalarga o'zlariga yoqadigan hayvon rasmlarini tanlab olishini taklif qilib, bolalarni guruhlariga ajratadi.

IV bosqich Tarbiyachi bolalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni umumlashtiradi.

Tarbiyachi: – Bolalar, siz hayvonlar haqida qanday she'r va ertaklar bilasiz? Ushbu hayvonlarga munosabatingizni bildiring-chi?

- Hayvonlarni qanday parvarish qilinadi? Ularga azob berish mumkinmi?
- Hayvonot olamini qanday asrash mumkin?
- Hayvonlarning inson hayotidagi ahamiyati qanday?

Bolalar o'rgangan bilimlari asosida savollarga javob topadi. Qaysi guruh faol qatnashsa, o'sha guruhga bayroqchalar tarqatiladi va qolgan guruh ishtirokchilari rag'batlantiriladi.

Bolalarda bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilganlik darajasi, hayvonot olamiga nisbatan axloqiy, ongli munosabatlarining shakllangani suhbat, muammoli savollar, test, kuzatish orqali aniqlanadi.

Tajriba-sinov natijalariga asoslanib, muammo doirasida bolalarning savodxonlik darajasi uch toifaga ajratib, baholanadi.

1. Yuqori.
2. O'rta.
3. Past.

"Klaster" metodi asosida tuzilgan sxema bolalarni hayvonot olamini klassifikatsiya qilishga o'rgatadi.

maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasini tashkil etish jarayonida hayvonot olamidan foydalanishga yo'naltirilgan faoliyatning maqbul shakl, metod va vositalarini aniqlash kelgusida tadqiqot muammosi bo'yicha amaliy faoliyatni samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish imkoniyatini yaratishgagina xizmat qilib qolmay, ayni vaqtda bolalarda axloqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning o'z mazmunida axloqiy g'oyalarni ifoda etgan hayvonot olami mohiyatini to'laqonli anglashiga yordam beradi. Mashg'ulotlar orqali bolalarda fikrlash, o'ylash hamda o'simlik va hayvonlar haqidagi tushunchalar ortib boradi.

XXI asrda insoniyat hayoti, olimlarning fikricha, hal qiluvchi darajada "ta'lim sohasiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning yo'nalishi va samaradorligiga, ularning intellektual, axloqiy fazilatlariga" bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalik inson hayotining bir davri sifatida nafaqat har bir insonning, balki butun insoniyatning, butun dunyoning shakllanishida alohida ro'l o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalik davridagi tarbiyaviy, mafkuraviy, axloqiy, madaniy va jismoniy ustuvorliklar avlodlarning hayot yo'llarini belgilaydi, butun

tsivilizatsiyaning rivojlanishi va holatiga ta'sir qiladi. Endilikda bolaning ichki dunyosini shakllantirishga, unda ijodiy tamoyilni tarbiyalashga imkon qadar ko'proq e'tibor qaratish zarur. Mutola bu masalada alohida qadriyat turi hisoblanadi, chunki kitob o'qish jarayonida, kitob bilan muloqot qilish jarayonida inson nafaqat dunyoning o'tmishi, buguni va kelajagini o'rganadi, balki bu asosiy narsadir. , fikrlashni, tahlil qilishni o'rganadi, ijodiy rivojlanadi; demak, uning shaxsining axloqiy-madaniy asoslari shakllanadi. Axloqiy tarbiya - bu bolalarni insoniyat va muayyan jamiyatning axloqiy qadriyatlari bilan tanishtirishning maqsadli jarayoni. Kichik maktabgacha yosh - bu bola hayotidagi muhim davr, u ijtimoiy munosabatlar olamiga kirib boradi, elementar axloqiy talablarni o'zlashtiradi va ularni bajarishga o'rganadi. Aynan shu davrda ular axloqiy madaniyatni shakllantirishning eng muhim sharti bo'lgan axloqiy g'oyalar asoslarini shakllantirdilar. Axloqiy tarbiya muammosi doimo o'qituvchilarni tashvishga solib kelgan. Jamiyat hayotining turli tarixiy davrlarida ta'lim mazmuni birinchi o'ringa chiqdi. Shunday qilib, K.D. Ushinskiy xalq ijodiyoti, mehnat va mehnat tarbiyasi haqida yozgan, vatanparvarlik, o'z xalqiga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda atrof-olam bilan tanishtirish alohida o'rin tutadi. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishni o'ziga yaqin bo'lgan hayvonot dunyosidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki bolalarning hayvonot olamiga qiziqishi juda yuqori bo'ladi. Bu orqali ularning tasavvur va idrokini shakllantirish mumkin. Bolalarning hayvonot dunyosi haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, ularning foydali tomonlari bilan tanishtirish, hayvonlar bilan do'stona munosabatni shakllantirish. Bolalarni hayvonot dunyosiga qiziqitirish. Bolalarni hayvonot dunyosi haqidagi bilimlarini shakllantirish, kengaytirish, rivojlantirish. Bolalarni hayvonot dunyosi bilan tanishtirishda ularni ikki guruhga bo'linishi (uy va yovvoyi hayvonlar); hayvonlarning nimalar bilan oziqlanishini va ular haqidagi tasavvurlarini boyitish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: hayvonlar rasmlari tushirilgan rasmlar, haykalchalar. : hayvonlarning kichik haykalchalari, chizmalar. kuzatish, og'zaki nazorat, o'z-o'zini nazorat, savol-javob.

Tarbiyachi bolalarni hayvonot dunyosi bilan tanishtirishning oson va samarali usullaridan foydalanadi.

Bolalarga hayvon nomlari o'rgatiladi, ularning uy va yovvoyi hayvonlar haqidagi tassavurlari kengaytiriladi.

Tarbiyachi bolalarni hayvonot dunyosi bilan tanishtirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va uni tatbiq etishni takomillashtirish; o'z ustida ishlash; mavzuni hayotiy misollar va voqealar bilan bog'lash; pedagogik mahoratni oshirish. Mashg'ulot davomida bolalar hayvonlarning turli sharoitlarda yashashga moslashganini bilib oladi. Shu bilan birga, ular hayvonlar bir necha guruhga bo'linishi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha pedagogika darslik . mualliflar Qodirova F.R. va boshqalar : "Tafakur nashriyoti", Toshkent 2019yil (685bet)
2. O.Safaochil "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari" O'qituvchi Toshkent-1997yil (208bet)
3. Narzullaev O'.X. "Hayvonat dunyosini muxofaza qilish va undan foydalanish xuquqi muammolari" Toshkent 2007yil (27bet)

4. Mirzaev Rustam “ hayvonat olamiga sayoxat” Toshkent Zarqalam2004yil.
5. (188bet)



**INNOVATIVE
ACADEMY**